



Ta'lim sifatini baholash tadqiqotlatni tashkil etish

Alimova Dilorom Xudoyqulovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

dalimova306@gmail.com

Yunusova Nozima Rovshan qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti 2- kurs talabasi

yunusovanozima2001@gmail.com

Annotatsiya: PISA xalqaro baholash tizimindan foydalanishning yana bir asosiy muhim jihatlaridan biri bu o'quvchilarning savodxonligi hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, o'quvchi, savodxonlik, ta'lim sifati, xalqaro baholash, mantiqiy fikrlash.

Abstract: Another important aspect of using the PISA international assessment system is to develop students' literacy and ability to apply their knowledge in practice.

Key words: PISA, PIRLS, TIMSS, reader, literacy, quality of education, international assessment, logical thinking.

So'ngi yillarda mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va



yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z – o'zidan o'quvchilarning ta'lim – tarbiyasi har tomonlama e'tiborni kuchaytiradi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomohlama qo'llab – quvvatlashda, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish mavjud tizimini har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy – tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar tashkil etish choralari to'g'risidagi" 2018-yil 8- dekabrda 997 - sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazirlari belgilandi:

O'quvchilar bilimini baholashda Bloom taksanomiyasi rivojlangan Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur s ingari davlatlar ta'lim tizimida keng foydalanib kelinmoqda.

PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo'lib, Program for international student assessment – o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma'noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo'lib, u dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an'anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o'tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo'nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo'nalish kiritiladi.




Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish,matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Dastlab 1997 - yilda ishlab chiqilgan va 2000 – yilda birinchi marta qo'llanilgan.

PIRLS NIMA?

- Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi.
- Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'yektiv testlarni o'tkazish orqali baholaydi.
- Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS TADQIQOTIDA ISHTIROK ETGAN MAMLAKATLAR



PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS - ingliz tilidagi Trends in International Mathematics and Science



Study soʻzlaridan olingan boʻlib, umumiy oʻrta taʼlimdagi matematika va tabiiy fanlardan taʼlim sifatini baholashga moʻljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. TIMSS ham IEA tomonidan joriy etiladigan PIRLS bilan hamnafas keladigan dastur boʻlib, unda 4-, 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlar boʻyicha bilimlari va savodxonliklari har 4 yilda bir marotaba xalqaro darajada baholanadi.

XALQARO TADQIQOTLARDA ISHTIROKCHILAR

- Fan metodistlari, inspector metodistlar
- Malaka oshirish tizimi
- Maktab rahbariyati
- Fan oʻqituvchilari
- Ota - onalar
- Oʻquvchilar

TIMSS – 4- va 8- sinf oʻquvchilarining tabiiy – ilmiy yoʻnalishidagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻqitish va taʼlim olish muhitini hamda oʻqituvchilarning ish sharoitlarini oʻrganish;

PISA – 15 yoshli oʻquvchilarning oʻqish, matematika va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Bu loyihalar oʻquvchi va yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qoʻllay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu koʻnikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.



Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021- yildan boshlab PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish boshlangan.

PISA – o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davrlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarni ijtimoiy munosabatlarda va inson faoloyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi.

Maktabdagi ta'lim sifatini monototing qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy yo'nalishda: o'qish matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi.

PIRLS – (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study- matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi va turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlariga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng maqsadli qamroviga qaratilgan.

Bular - badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini bildiradi.



Bulardan: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan – to‘g‘ri xulosalar chiqrish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

O‘qish savodxonligining maqsadi:

- badiiy tajriba orttirish;
- axborotni olish va undan foydalanish.

Tushunish jarayoni:

- diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;
- to‘g‘ridan – to‘g‘ri xulosalar chiqarish;
- g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish;
- content va matn elementlarini baholsh va tanqid qilish.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoring bo‘lib, ta’lim yutuqlarini baholash asstsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirh hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi.

Mazkur dasturning o‘ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchining oilaviy muhiti bilan bog‘liq omillarini o‘rganadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar matematika fanlarini o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

PISA va TIMSS o‘rtasidagi asosiy farq.



PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o'tkazilishidan iboratdir.

Masalan: **PISA** 15 yoshli o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, **TIMSS** esa muayyan yoshdagi o'quvchilarning emas, balki to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o'quv dasturlariga asoslangan bo'lsa, PISA esa, o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarini hal qila olishlarini baholashga qaratiladi.

TIMSS aynan maktab bilimlarni o'zlashtirish datajalarini baholash, PISA bilim va ko'nikmalarini maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo'llay olish darajalariga alohida e'tibor qaratadi.

Ta'limdagi bunday o'zgarishlar o'quv dasturi va o'quv adabiyotlari mazmunini o'zgartirishga undaydi. Ona tili, matematika va tabiiy fanlardan PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasi yaratildi va o'quv dasturlariga kiritildi. PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar singdirilgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha qo'llanma hamda adabiyotlar yaratildi va amaliyotga joriy etildi.


5- sinfdan 11- sinfgacha o'quv dasrliklarida buni ko'rish mumkin. PISA ona tili, matematika va tabiiy fanlar o'qitishning shakl, metod, texnologiyalarini yangilanib o'qituvchilarning bu boradagi bilimini oshirmoqda. Bu fanlardan o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratilib, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazish niyatida. PISA testlaridan ona tili darslarida foydalansa, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarini qo'llash o'quvchilarning hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan: 4-sinf ona tili dasturida berilgan "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusini mustahkamlash maqsadida darslikdan tashqari quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzish mumkin.



TIMSS topshiriqlari Sinf: 4- sinf (6-mashg'ulot)

Topshiriq 1

Mumtoz, rasmda berilgandek, aylana ichida shakl chizmoqchi bo'lib aylanani teng 12 qismga bo'ldi va nuqtalarni 1 dan 12 gacha bo'lgan sonlar bilan belgilab chiqdi. So'ng 12 va 3, 3 va 6 nuqtalarni kesmalar bilan birlashtirdi. Mumtoz chizmoqchi bo'lgan shaklni davom ettirish uchun 6 va 9, 9 va 12 nuqtalarni kesmalar bilan birlashtiring. Qanday shakl hosil bo'ldi?



A. aylana B. beshburchak C. kvadrat D. uchburchak

Javob: C.kvadrat

Topshiriq № 1. KOD 3M4_18

Topshiriq hususiyati :

Mazmun sohasi : geometrik shakllar va o'lchashlar

Mavzu sohasi : shakllar va o'lchov birliklar

Kognitiv sohasi : bilim

Maksimal ball : 1

Baholash mezonlari :

Ball	KOD	Javob
		To'g'ri javob
1	10	C. kvadrat
		Noto'g'ri javob
0	99	Boshqa javoblar tanlanganda yoki javob ko'rsatilgan bo'lsa



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997 -sonli qarori.
3. D .Rabbonayeva maruza matnidan.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) . Ta‘lim instituti huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997 -sonli qarori.
3. D .Rabbonayeva maruza matnidan.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) . Ta’lim instituti huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil.